

ISSN:2181-0427 ISSN:2181-1458

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА



2021 йил махсус сон



Фойдаланилган адабиётлар:

- 1.Ш.М.Мирзиёев Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Т.Ўзбекистон 2017.-488 б
- 2.Ўзбекистон Республикасида миллий маданиятни янада ривожлантириш концепсиясини тасдиқлаш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори 2018-йил 29.11.да
- 3.Туленов Ж., Фофуров З. Мустақиллик ва миллий тикланиш. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – 253 б.
- 4.Туленов Ж., Юсупов К., Фофуров З. Истиқлол ва тараққиёт мафқураси: мақсад ва йўналишлар. – Т.: Ўзбекистон, 1993. – 48 б.

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA MEDIA KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING
PEDAGOGIK ASOSLARI**

Qambarov Musoxon Muxtorjanovich, NamDU.

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Annotation: maqolada pedagogik kompetetlikning komponentlari sifatida mediasavodxonlik va media kompetentlik tushunchalarinini mohiyati ochib berilgan. Kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarning yaxlit tizimini shakllantirish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda media kompetentlikni rivojlanishning pedagogik asoslari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kompetentlilik, mediasavodxonlik, audiovizual ma'lumotlar, media, kompyuter, shaxsga oid ma'lumotlar, axborot, gazeta, jurnal, radio, televideniya, kompetentlik tushunchasi.

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ МЕДИА КОМПЕТЕНЦИИ У БУДУЩИХ
УЧИТЕЛЕЙ**

Камбаров Мусохон Мухторжанович, доктора
философии(PhD) по педагогическим наук НамГУ

Аннотация: В статье раскрыта сущность понятий медиаграмотность и медиакомпетентность как компоненты педагогической компетентности. Указаны педагогические основы медиакомпетентности будущих учителей в процессе формирования целостной системы профессиональных знаний, умений и навыков.

Ключевые слова: компетентность, медиаграмотность, аудиовизуальные информации, медиа, компьютер, информации о личности, информация, газета, журнал, радио, телевидение, понятие компетентность.

**PEDAGOGICAL BASES OF DEVELOPMENT OF MEDIA COMPETENCE OF FUTURE
TEACHERS**

Qambarov Musokhon Mukhtorzhhanovich, NamSU.
Doctor of philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)

Annotation: The article reveals the essence of the concepts of media literacy and media competence as components of pedagogical competence. Furthermore, it is given information on the process of formation of the holistic system of professional knowledge and skills, pedagogical bases of development of media competence that will be indicated in future career of students.

Keywords: competence, media literacy, audiovisual data, media, computer, personal data, information, newspaper, magazine, radio, TV, the concept of competence.

Zamon taraqqiyoti shunday rivojlanish bosqichiga ko'tarildiki, bunday madaniy o'zgarishlar sur'ati, shaxsdan juda qisqa muddatda katta hajmdagi axborotni qabul qilish, yangi faoliyat usullarini o'zlashtirish hamda kasbiy va ijtimoiy muammolarning yechimini o'z vaqtida topish malakasini talab qiladi. Respublikaninig ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy va axborot-kommunikatsiya sohalarida yuz berayotgan tizimli o'zgarishlar kishilar hayotida ham o'z tasirini ko'rsatmoqda. Mazkur fikrlar pedagogik oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga ham bevosita daxldor bo'lib, ta'lim-tarbiya tizimini joriy etish kelajakda o'qituvchi bo'lish uchun bugun oliy o'quv yurtlarida kasb sirlarni egallayotgan talabalarda media kompetentlikni egallaganligiga bog'liqdir.

Pedagogik kompetentlikning muhim yo'naliшlaridan biri pedagogining media kompetentlikka ega bo'lishi bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Mediasavodxonlik tushunchasi borasida turli xil fikrlar mavjud bo'lib, AQShning Jamiat xususidagi xalqaro entsiklopediyasida qayd etilishicha, «Mediasavodxonlik» (media literacy) inson jamiyatdagi fuqaro sifatidagi mas'uliyatini his qilgan holda faol va savodli bo'lishi, mediamatnlarni qabul qila olishi, yaratishi, tahlil eta olishi va baholashi, zamonaviy mediani ijtimoiy-madaniy va siyosiy mazmunini tushuna olishi demakdir.

Londonning Qirollik universiteti professori S.Fayrstounning fikriga ko'ra esa, «Mediasavodxonlik» harakat bo'lib, uning asosiy vazifasi insonlarni audiovizual va bosma matnlarning madaniy ahamiyatini tushunish, yaratish va baholashga undashdan iborat», Ingliz siyosatshunosи R.Kibey esa "mediasavodxonlikni turli xil shakkarda ma'lumotlarni uzatish, ularni tahlil etish va baholash"- deb tushunadi.

Fikrimizcha, mediasavodxonlik insonlar uchun eng zarur bo'lgan o'qish, yozish kabi juda muhim ko'nikma bo'lib, ommaviy axborot vositalari (gazeta, jurnal, radio, televideniya, internet) orqali qabul qilinadigan barcha axborotlarni xolis baholash, masala mohiyatini to'g'ri tushunib, ma'lumotlarni tekshirish, o'zlashtirilgan ma'lumotlar asosida mustaqil fikr yuritish, axborotlarni saralashdan iboratdir.

Zamonaviy o'qituvchi o'z sohasi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish, kasbiy mahorat sirlarini puxta o'zlashtirishdan tashqari, bir tomondan, o'quvchilarning bilimdonligi va intellektual rivojlanishini ta'minlashi kerak bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularda sog'lom dunyoqarash, mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirishi lozimdir. Shu tufayli o'qituvchi-mutaxassislarni tayyorlashda ularning kasbiy sifatlari bilan bir qatorda bo'lajak o'qituvchilarida media kompetentlikhi qaror toptirish hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Chunki o'qituvchining o'zi media kompetentlikga ega bo'lmasa, o'quvchilarida bunday xususiyatni shakllantira olmasligi tabiiydir. [1].

Aynan jamiyat hayotiga ta'sir etuvchi mazkur salbiy jihatlarning oldini olishda aholini mediasavodli qilish zarur. Bugungi kunda mediasavodxonlik Buyuk Britaniya va Avstraliyada gumanitar fanlar tarkibida alohida fan sifatida o'tiladi, Finlyandiyada 1970-yildan o'rta maktablarning, 1977-yildan esa oliy o'quv yurtlarning o'quv dasturlariga kiritilgan. 1990-yillarda esa mamlakatda mediasavodxonlik mediata'lim tushunchasi bilan almashtirildi. Shvetsiyada u 1980-yildan boshlab ta'lim muassasalarida alohida fan sifatida o'qitila boshlangan. 1990-yillarda 80-yillarda rus olimlarning tadqiqot ob'ekti bo'ldi. O.Baranov, S.Penzin, A.Fyodorov, A.Sharikova va boshqalarning tadqiqotlari bunga



misol bo'la oladi. 2002-yili pedagogika oliy ta'lif muasasalari uchun media ta'lim ixtisosligi bo'yicha yo'naliш ochildi. 2005-yili esa YUNYESKO homiyligida "Mediata'lim" darsligi yaratildi va Rossiyada kinota'lim va mediapedagogika sayti ishga tushirildi.

Ommaviy axborot vostialari orqali tarqatilayotgan axborotning manipulyativ ta'siri kuchlilagini bugun hech kim inkor etmaydi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, Ommaviy axborot vostialari orqali tarqatilayotgan xabarning haqqoniyligiga ishonish ilk gazetalar paydo bo'lishi bilan yuzaga kelganligini ko'rish mumkin. 1874 yilning 9 noyabr kuni New York Herald gazetasida reportyori T.B.Konneri tomonidan Sentral Park hayvonot bog'ida yirtqichlar chiqib ketib, "ikki yuzga yaqin odam jarohatlangan, toptalgan bo'lib, oltmish nafari og'ir ahvolda. Ulardan uchtasi ertalabgacha yetib bormasligi mumkin. O'n ikkita yirtqich hayvon hamon erkinlikda. Ular qaerga yaqinlashganligi hozircha noma'lum" deya yolg'on xabar bosib chiqarilib, uning oxirida gazeta mushtariylari xavotirga tushmasliklari, bularning barchasi uydirma ekanligi yozilgan edi. Ammo ko'pchilik xabarning aynan shu joyigacha yetib kelmay, yashirinishga, ba'zilar esa qo'lga qurol olib yirtqichlarni o'ldirish uchun hattoki ko'chaga chiqishgan. 1939 yili CBS radiostantsiyasi Orsona Uelles tomonidan Mercury teatridda Gerbert Uellsning "Dunyolar urushi" romani asosida qo'yilgan asarining radiopostanovkasini efirga uzatayotgan paytida ommaviy tartibsizliklar yuz bergen. Roman syujetiga ko'ra, marsliklar yerni bosib olib, millionlab insonlarni gaz bilan zaharlaydilar. Ko'pgina odamlar radiopostanovkaning birinchi qismini eshitgan daqiqalardan boshlab qochishga, "dushmanlar"dan yashirinishga harakat qilishgan. 1835 yili birinchi Amerika tabloidi (tabloid-kichik tirajdagi gazeta) New York Sun jurnalist Richard Adame Lokkning ingliz astronomi oyning yuzasida aqli jonzotlarni teleskop orqali ko'rganligi haqidagi yolg'on xabarni bosib chiqaradi. Natijada gazetaning adadi o'sha paytda eng yuqori ko'rsatkich — 19 ming donaga yetadi. Hattoki, xristian ayollar jamiyatni ularni nasroniy diniga kiritish uchun oyga uchish taraddudiga ham tushishadi[2].

Bugun ommaviy axborot vositalarining ta'siri o'sha paytdagidan kam emas. Aynan axborotni tahlil qilmay, noto'g'ri qabul qilish oqibatida yoshlar jinoyatga qo'l urmoqda, o'zini kino asari qahramoni sifatida his qilganlar esa, "Qahramon" xatti-harakaatlarini takrorlagan holda qo'llariga qurol olib, begunoh insonlar hayotiga zomin bo'lishmoqda. Masalan, respublikamiz telekanallari orqali efirga uzatilgan "Qashqirlar makoni" serialidan so'ng qaxramonlikni noto'g'ri talqin qilish tushunchalari paydo bo'ldi. "Hovli" seriali orqali mакtab o'quvchilari o'rtasida guruhbozlik odatlari paydo bo'lmoqda. AQShda jangari filmlari va kompyuter o'yinlarini ko'rgan maktab o'quvchilari haqiqiy qurol bilan sinfdoshlari va ko'chadagi begunoh odamlarni otib qo'yanliklari haqidagi xabarlar tobora ko'payib bormoqda. Bugungi kunda terrorchilik guruhlari tomonidan internet orqali jihadga chaqirgan, "jannat" va'dasini o'zida mujassam etgan axborotlari yoshlar ongiga salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Demak, aynan ana shu holatlarning oldini olish, axborotga ongli ravishda yondoshish bugun zamon talabidir.

Inson hayotida ham, jamiyat taraqqiyotida ham bunyodkor g'oyalari muhim o'rinn tutadi.

Har bir jamiyat va xalqning muayyan maqsadlar hamda manfaatlar yo'lida uyuştiruvchi, safarbar etuvchi g'oyalari va ta'limotlarga muqarrar ravishda ehtiyoj sezadi.

Ta'lim-tarbiya ishlari zamirida ham barcha davrlarda muayyan manfaatlar bilan bog'langan maqsadlar mavjud bo'lgan. Bu maqsadlar tizimi va ularning mohiyati davlatlar, turli siyosiy kuchlar yaratgan va amal qilgan g'oya hamda mafkurada ifodalangan. Har qanday mafkura ham jamiyat ma'naviy kamolotini, unga zamin bo'ladigan, ta'lim-tarbiya ishlari



tizimini ijtimoiy, siyosiy maqsadlar bilan bog'lashga qaratilgan g'oyalardan iborat bo'lgan. Masalan, mazkur g'oyalar bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini va mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirish asosida talabalarda analistik va alternativ tafakkurni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish bo'lajak o'qituvchilarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish texnologiyalarini takomillashtirishni talab etadi.

Yuqorida qarashlar, bugungi kunda pedagogik oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar bo'lajak o'qituvchilarda media kompetentlikni rivojlantirishni taqazo etadi. Chunki, o'qituvchilar o'quvchilarga eng so'ngi yangiliklar va ularning mohiyatini tushuntirib berishlari kerak bo'ladi. «Kompetentli» yondoshuvga asoslangan ta'lim tizimida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining roli ham o'zgaradi. Chunki, «bilimli» yondoshuvda ta'lim beruvchi faol va asosiy ishtirokchi bo'lsa, ta'lim oluvchi esa, sust qabul qiluvchi sifatida ishtirok etadi. «Kompetentli» yondoshuvda esa, ta'lim oluvchi faol ishtirokchiga aylanadi, chunki uning ta'lim olish faoliyati ko'proq mustaqil individual topshiriqlarni bajarish va uning natijasini himoya qilishga, kreativ amaliy mashg'ulotlarda doimiy ravishda savollarga javob berish va individual tadqiqot ishlarini olib borishga qaratilgan bo'ladi. Ta'limda yangi tadqiqot yo'nalishi bo'lgan kompetentli yondoshuvning paydo bo'lishi hamda xorijiy pedagogik va metodik manbalarda «kompetentlik» va «kompetentsiya» toyifalarining paydo bo'lishi natijasida oliy ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligi nazariyasi va amaliyotiga keng kirib bordi [3].

Jahon va milliy psixologiya, pedagogika ilmidagi fikrlash madaniyati bilan bog'liq qarashlarga asoslanib, mediasavodxonlik tushunchasiga xos bo'lgan ratsional fikrlash, turli usullarni taqqoslash qobiliyati muammoni hal etishda kam vaqt sarflab ko'p samara beradigan usullarni topa olish orqali aniqlanadi ratsional fikrlash, turli usullarni taqqoslash qobiliyati muammoni hal etishda kam vaqt sarflab ko'p samara beradigan usullarni topa olish orqali aniqlanadi [4].

Pedagogik oliy ta'lim muassasasi talabalarining mediasavodxonligini rivojlantirish uchun, birinchi navbatda, o'qitish metodlarini таҳлаш (tushuntirish, illyustrativ) talabalarining bilish faoliyatlari xarakteri bo'yicha tasniflash zarur. Bu, o'z navbatida, ularga o'tmishni baholash, keljakni ko'ra bilish, o'z diqqatini turli vaziyatlarga to'g'ri yo'naltirish, o'quv va kasbiy vazifalarni maqsadga muvofiq ravishda samarali hal etish imkonini beradi. U yoki bu hodisalar, dalillar, ilmiy qoidalar bo'yicha mulohaza yuritiladigan murakkab va hali tushunilmagan hodisa oldida harakatlanish, yangi va hali bilib ulgurilmagan hodisaga nisbatan topilgan yechimning to'g'riliqiga shubhalanish yoki xulosaning aniqligini yuzaga keltiradi.

Hozirda medianing tahlil etilishi natijasida tilimizga kirib kelayotgan tushunchalar, ya'ni mediasavodxonlik, mediata'lim, mediani o'rghanish va boshqalar bir-biri bilan bog'liq bo'lsa-da, olimlar ularni mohiyatan bir-biridan farqlashga urinmoqdalar. Fikrimizcha, mediasavodxonlik mediata'limning uzviy bog'liq qismidir. Shu bilan birgalikda uning ko'rinishlari ko'paymoqda. Bugungi kunda mediaaxborotni qabul qilish, saralash, tahlil etish, baholashda mediasavodxonlik tushunchasi bilan birgalikda mediata'lim, mediani o'rghanish, mediamadaniyat tushunchalari ham o'ta muhimdir.

Mediasavodxonlikni rivojlantirishni inson umrining davrlariga bo'lib talqin qilsak, bu o'spirinlik, ya'ni talabalik yillariga to'g'ri keladi. Bu davrning yana bir muhim jihat shuki, unda fikrlash jarayoni takomillashadi, mustaqil tarzda o'zligini anglash, muayyan kasb-korni egallash yillariga ham to'g'ri keladi[5]. Yuqorida keltirilgan fikrlardan ko'rinish turibdiki,



mediasavodxonlikni rivojlantirishning ijtimoiy ta'minoti talaba shaxsining integrativ pedagogik va ijtimoiy-madaniy komponentidir. U qarashlar vositasida faol o'qitish muhitini yaratadi, sermahsul ijodiy muloqotni ko'zda tutadi.

O'zbekistonda mediata'lim o'z asl ma'nosida aholining mediasavodxonligini oshirish vositasi sifatida qo'llanilmaydi. Oliy ta'lim muasasalarda murabbiylik soatlari doirasida "axborot soat" larining va talabalarga media bilan muloqotda, ularning hayotidagi media mazmunini tushunishda tanqidiy nuqtai nazar bilan qarashga yordam beradi. Mediasavodxon o'quvchi yoki talaba mediamatnlarga baho berishda tanqidiy va tushungan, ommaviy madaniyat bilan munosabatda tanqidiy masofada bo'lishi bilan manipulyatsiyaga qarshilik qilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Қамбаров М. Таалабаларни мустақил фикрлаш маданиятини ривожлантириш: Монография Наманган. – Аржуманд медиа, 2021
2. Н.Муратова, Э. Гризл, Д. Мирзахмедова Журналистикада медиа ва ахборот саводхонлиги: Тошкент: Baktria press, 2019. - 112 б
3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014
4. Козырева О.А. Компетентность современного учителя: современная проблема определения понятия Стандарты и мониторинг в образовании. – 2004. – № 2. – С.48-51.
5. Kubey, R. (1998). Obstacles to the Development of Media Education in the United States. Journal of Communication (Winter), pp.58-69.
6. Мигранова Е.А., Позилова Ш.Х. Касбий педагогик фаолиятга кириш. – Тошкент: Тафаккур бўстони, 2018. – 200 б.
7. Универсальная журналистика: опыт проектного обучения. Учебное пособие под общей редакцией Л. Шестерёнкиной. – Челябинск, 2018.
8. Muratova N. New media audience: psychological aspects and transformation of the social role. Media, Human, Society in Asia. Korea & Uzbekistan. Seoul, South Korea, April 21–26, 2019. — P. 107–113



ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ ТВОРЧЕСКИХ ЗАДАНИЙ В РАЗВИТИИ РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Мирзахалова Гулнора Улугбек қизи

Магистрант 2-курса Наманганского государственного университета факультета филологии направления русского и литературы

Тел:94 502 72 24 e-mail: sarelk253@gmail.com

Аннотация: В статье рассматривается эффективность применения творческих заданий в развитии речевой деятельности учащихся. Даются описания некоторых методов, которые проявляют творческие способности и позволяют выявить индивидуальные особенности учащихся.

Ключевые слова: творческие задания, индивидуальность, эффективность, методы, продуктивные, игры, речь, мышление.

НУТҚ ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИЖОДИЙ ТОПШИРИҚЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИ

Мирзахалова Гулнора Улугбек қизи

Наманган давлат университети филология факултети рус тили ва адабиёти йўналиши 2-босқич магистранти

Тел:94 502 72 24 e-mail: sarelk253@gmail.com

Аннотация: мақолада ўқувчиликнинг нутқий фаолиятини ривожлантиришида ижодий топшириқлардан фойдаланиш самарадорлиги ўрганилган. Ижодий қобилиятларни намоён етувчи ва ўқувчиликнинг *individual* ҳусусиятларини аниқлашга имкон берувчи айрим методикаларнинг тавсифлари берилган.

Калим сўзлар: ижодий вазифалар, индивидуаллик, самарадорлик, методлар, маҳсулдор, ўйинлар, нутқ, фикрлаш.

THE EFFECTIVENESS OF THE USE OF CREATIVE TASKS IN THE DEVELOPMENT OF SPEECH ACTIVITY

Mirzakhalova Gulnora Ulugbek kizi

2nd-year master's student of Namangan State University, Faculty of Philology, Direction of Russian and Literature

Annotation: The article considers the effectiveness of the use of creative tasks in the development of the participant speech activity. Descriptions are given of some methods that show creative abilities and allow us to identify the individual characteristics of the participants.

Keywords: creative tasks, personality, efficiency, method, productivity, game, speech, thinking.

В 21-веке, в веке информационных технологий, очень легко найти нужный материал в готовом виде. Это, в свою очередь, приводит к тому, что подрастающее поколение становится одинаково мыслящим, стираются грани и теряется индивидуальность личности. Чтобы избежать этого, нужно со школьной скамьи учить детей быть самостоятельной и индивидуально особенной личностью. Ребёнок, поставленный в



142	К вопросу о роли духовности в формировании патриотизма у молодежи Джуманазарова З.	673
143	Boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yinlardan foydalanish samaradorligi Ismoilov T., Sultanov B., Artikova N.	677
144	Нотўлиқ оиласарда болаларни ижтимоий ҳаётга тайёрлашнинг педагогик механизmlари Асрланбаева М.Х.	681
145	Ўқувчиларда ўзбек менталитетига хос маънавий-ахлоқий хусусиятларни шакиллантиришда бадиий асарларнинг ахамияти Усмонова М.Б.	688
146	Bo'lajak o'qituvchilarda media kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari Qambarov M.M.	693
147	Эффективность применения творческих заданий в развитии речевой деятельности Мирзахалова Г.У.	698
148	Ўсмирлик ёшидаги болаларнинг морфофункционал хусусиятлари Иминжанов Р.А., Холматов Н.У.	702
149	Ҳарбий ватанпарварлик тарбиясига қўйиладиган замонавий ижтимоий-педагогик талабалар Мамажонов Р.А.	707
150	Педагог кадрлар малакасини ошириш жараёнида тингловчиларда касбий компетентликни оширишнинг педагогик шарт-шароитлари Нематова С.И.	713
151	"Inklyuziv ta'lim muhitida pedagogik faoliyatni tashkil etishning xozirgi kun muammolari" Xusanov A.A.	720
152	Тиббий педагогикада модел ва векторли моделлаштириш Кадирова М.Р.	724
153	1-синф ўқувчиларида мантиқий масалалар ёрдамида математик тафаккурни шакиллантириш Каримова К.Р.	733
154	Мактабгача таълим ёшидаги боланинг тарбиялашда оила, махалла ва нодавлат нотижорат ташкилотлари ҳамкорлиги. Абдуллаева М.А., Абдуллаева Н.С.	740
155	Бошланғич синф ўқувчиларида креатив фикрлаш қўнималарини ривожлантириш технологиялари Тўраева Н.З.	744
156	Олий таълимда Э.Воҳидов ижодининг мултимедияли таъминотини яратишда ахборот дастурий воситалардан фойдаланиш Хўжамбердиева Ш.К.	748
157	Публицистика писателей как источник обогащения педагогического процесса Абдулвоҳидов Э.	753